
UCHRASHUV DAVOMIDA BITIRUVCHILAR KERAKLI TAVSIYALAR BERILMOQDA

2-maktabda ham Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarovning bitiruvchilar bilan uchrashuvi o'tkazildi. Unda shahar hokimligi hamda xalq ta'limi bo'limi mutasaddi xodimlari, ustoz-murabbiylar, yoshlarning ota-onalari, davlat va jamoat tashkilotlari hamda oliy ta'lim muassasalari vakillari ishtirok etdi.

Uchrashuv avvalida shahar hokimi so'zga chiqib, bitiruvchilarga kelgusi maqsadlariga erishishlarida omadlar tiladi. Shuningdek, har bir bitiruvchi yoshlarning kelajakda o'z o'rinlarini topishlari uchun shahrimizda barcha sharoitlar yaratilganligini ta'kidlab o'tdi.

Uchrashuv davomida shahar hokimi bitiruvchilar bilan ochiq muloqotda suhbatlashdi. Bitiruvchilar o'z fikr va mulohazalarini bildirishdi. Oliy ta'lim muassasalariga kirish, yaratilgan ish o'rinlari, kab-hunar egallash uchun o'qish bo'yicha bitiruvchilardan tushgan savollarga mutaxassislar tomonidan javoblar hamda tushunchalar berildi.

2022-06-30 11:53:25